

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA GAPNING MA'NOSIGA KO'RA TURLARI

Abdulhayeva Muxlisa Sultonmurod qizi

Andijon DPI talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari va turk tilidagi gapning ma'nosiga ko'ra turlari haqida ma'lumot berilgan. O'zbek tilidagi tasdiq – inkor bildiruvchi modallik turk tilida qanday bo'lishi izohlangan. Ikki tildagi farqli jihatlar misollar bilan ko'rsatilib tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *gap, predikatlik, darak gaplar, so'roq gaplar, buyruq gaplar, undov gaplar, istak gaplar, shart gaplar, modallik, tasdiq gaplar, inkor gaplar.*

KIRISH

Fikr ifodalash, munosabat bildirishning asosiy vositasi gap hisoblanadi. Gap nisbiy hukm bildiradi. Gapning asosiy belgilari- unda nisbiy fikr tugalligi va predikativlikning mavjud bo'lishi, grammatik jihatdan ma'lum qonun va qoidalar asosida shakllanishi, tashqi tomondan o'ziga xos tugallangan ohangga ega bo'lishi shart. Har bir gapda ma'lum fikr, maqsad yoki his-hayajon ifodalanadi, aks holda, u so'z birikmasi bo'lib qoladi. Bu maqsad yoki his-hayajon, sodda yoxud qo'shma shaklda ifodalanishi ham mumkin. Gapning asosiy belgilaridan yana biri predikativlikdir. Predikativlik - gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalashdir. Gap orqali so'zlovchi biror voqea, hodisa yoki xususiyatning mavjudligi yoki biror za-monda ro'y berishi, realligi yoki norealligi xohishi yoki noroziligi kabi munosabatni ham ifodalaydi. Bu munosabat, ya'ni predikativlik modallik va zamon, shaxs kate-goriyalari orqali ro'yobga chiqadi. Bu kategoriyalar turli morfologik, sintaktik, into-natsion va boshqa yo'llar bilan ifodalanadi.

Asosiy qism: O'zbek tilida gaplar kuzatilgan maqsadning har xilligiga- maqsadning yo'nalishiga qarab, shunday turlarga bo'linadi:

1. Darak gaplar. Misol: Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi. (H.O)
2. So'roq gaplar. Misol: Bolani doktorga ko'rsatmadingizmi? (A.Q)
3. Buyruq gaplar. Misol: Oq oltinni tezroq tering, o'rtoqlar!

Bu turlarning har biri kuchli emotsionallikka, shuni ko'rsatuvchi undov intonatsiyaga ega bo'lish bilan undov gap bo'ladi. ¹⁶

Turk tilida gapning ma'nosiga ko'ra turlari Anlamlarına göre cümleler deyiladi. Bütün bunları göz önünde bulundurarak cümleleri anlamlarına göre sekiz bölümde inceleyebiliriz Bunga ko'ra ular sakkizga bo'linadi.

Mehmet Hengirmenning “ Türkçe Temel Dilbilgisi ”¹⁷ (Turk tilining nazariy grammatikasi) kitobida ma'nolariga ko'ra gaplar haqida juda ham foydali ma'lu-

¹⁶ A.G'.G'ulomov,M.A.Asqarova. “Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis” Toshkent. O'qituvchi nashriyoti.1965.52-b.

¹⁷ M.Hengirmen. “ Türkçe Temel Dilbilgisi ”. Engin Yayın Evi. Ankara. 350-s.

motlar berilgan. Unda ma'nosiga ko'ra gaplar bildirme cümleler, istek cümleler, emir cümleler, soru cümleler, ünlem cümleler, şart cümleler, olumlu ve olumsuz cümleler ga bo'linadi. ¹⁸ O'zbek tilidan farqli jihati istak gaplar vas hart gaplarning ajratilishi va tasqid-inkor gaplarning ham ma'no turlariga kirishidadir.

Turk tilida -sa qo'shimchasi bilan shart gaplar hosil qilinadi.

Misol: İnsanlar severek çalışırlarsa her işi başarılılar.

Ne ekersen onu biçersin. (Türk atasözü)

Ushbu misollardagi çalışırlarsa, ekersen so'zlari şart anlami da kelgan.

O'zbek tilida gaplar modallikka ko'ra ikki guruhga ajratiladi: tasdiq va inkor gaplar. Shu bilan birga, tasdiq va inkor gaplarni gapning kommunikativ turlaridan biri – darak gapning shakllari, deb o'rganish holatlari ham mavjud. O'zbek tilshu-nosligida tasdiq va inkor gaplarning o'ziga xos xususiyatlari, ushbu gap turlarini shakllantiruvchi grammatik vositalar, shuningdek, ulardagi shakliy-mazmuniy no-muvofiqlik alohida tadqiqot ob'ekti bo'lgan.

Turk tilshunosligida tasdiq va inkor gaplar gapning ma'nosiga ko'ra turlari hisoblanadi. H.Dizdaro'g'lu tasdiq va inkor gaplarni quyidagicha guruhlashtiradi: "Turk tilidagi tasdiq gaplar kesimning tarkibiga ko'ra ikki xil bo'ladi: tasdiq ot-gaplar, tasdiq fe'l-gaplar. Tasdiq ot-gaplar o'z ichida yana ikki guruhga bo'linadi: shakli va mazmuniga ko'ra tasdiq gaplar; shakliga ko'ra inkor, mazmuniga ko'ra tasdiq ot-gaplar. Turk tilida inkor gaplar ham, o'zbek tilidan farqli ravishda ikki guruhga bo'linadi: inkor ot-gaplar va inkor fe'l-gaplar. Inkor ot-gaplar tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: shaklan va mazmunan inkor ot-gaplar, shaklan tasdiq, mazmunan inkor ot-gaplar va hokazo."¹⁹

Olumlu: Mutluluk paylaşılınca büyür, dertler paylaşılınca küçülür.

Düşman larımız, bizi daha güçlü olmaya zorlayan en büyük dostlarımızdır.

Dost kötü günde belli olur. (Türk atasözü)

Olumsuz: Elden gelen öğün olmaz, oda vaktinde bulunmaz. (Türk atasözü)

Geçen zaman geri gelmez.

Bilgi ve ahlâkın olmadığı yerde, demokrasi olmaz.

Demakki, turk tilida modallik anchagina keng tushuncha ekan.O'zbek tilida unga mos muqobil shakllar yetarlicha emas.

Xulosa: Bulardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbek va turk tillari-dagi tasdiq hamda inkor gaplarni anchagina mukammal ishlangan mavzulardan biri tarzida e'tirof etish mumkin. O'zbek tilshunosligida ayni gap tiplari gapning modal-likka ko'ra turlari tariqasida tasniflangan. Turk tilshunosligida gapning ifoda ma'nosiga ko'ra turlari deb o'rganilishini hamda bu gap turlari tuzilishiga va kesimi-ning ifoda materialiga binoan o'z ichida guruhlarga ajratilishini tahlil qilindi.

¹⁸ Yuqoridagi asar. 53-57-b.

¹⁹ H.Dizdaro'g'lu . Tumcebilgisi. Ankara: TDK, 1976. 45-s.

FOYDALANILGAN ADABIYOTALR RO'YXATI:

1. A.G'.G'ulomov, M.A.Asqarova. "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis"
Toshkent. O'qituvchi nashriyoti.1965.
2. H.Dizdaro'g'lu . Tumcebilgisi. Ankara: TDK, 1976.
3. M.Hengirmen. " Türkçe Temel Dilbilgisi ". Engin Yayın Evi. Ankara.2006.